

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

ELOVA SITORA AXMATKULOVNA

**QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNING TEZKOR-KUCH
QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq - 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical science**

Elova Sitora Axmatkulovna

Qisqa masofalarga yuguruvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish
metodikasi3

Элова Ситора Ахматкуловна

Методика развития скоростно-силовых способностей бегунов на короткие
дистанции29

Elova Sitora Akhmatkulovna

Methodology for the development of speed-strength abilities of short-distance
runnersoniya.....57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....61

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

ELOVA SITORA AXMATKULOVNA

**QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNING TEZKOR-KUCH
QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida 2024.2.Phd/Ped7696 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.jtsu.uz va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Daniyeva Yarqinoy Choriyevna
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Raximov Vladimir Shavkatovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Sherov Zokir To‘yliyevich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “___” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tdi. (Manzil:111709, Toshkent viloyati Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-19, 717-27-27, faks: (0-370)-717-17-76, veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti E-bino, 3-qavat, 309-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (211591 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-19, 717-27-27, faks: (0-370)-717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

R.M.Matkarimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d(DSc), professor

M.A.Ibragimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.b.f.d.(PhD), professor

A.N.Shopulatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi p.f.d(DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo arenalarida bugungi kunda sport natijalarini kun sayin oshib borishi yangi-yangi texnologiyalarni amaliyot jarayoniga tatbiq etish lozimligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa yengil atletikaning qisqa masofalarga yugurish turi bo'yicha sportchilarni nufuzli musobaqalarga tayyorlash ularni jismoniy funksional, texnik, taktik psixologik va integral tayyorgarligini oshirish sportchilar tayyorlash tizimining ustuvor vazifalaridan sanalmoqda. Qolaversa, yengil atletikaning qisqa masofalarga yugurish turida sportchilarni tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirmasdan yuqori natijalarga erishib bo'lmaslik, mashg'ulotlarda sportchilarni jismoniy tayyorgarligini yangi vosita usullarni qo'llash orqali tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish, hamda sport natijasini yuksaltirish hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Jahonda qisqa masofalarga yuguruvchilarni jismoniy, funksional, texnik, taktik va psixologik tayyorgarligini oshirish sport turlariga saralash va yo'naltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yuguruvchilarning mikro, mezo va makrosikllarida yuklamalarni taqsimlanishi, tayyorgarlik bosqichlarida mashg'ulotlarni optimal rejalashtirish, texnik tayyorgarligini jismoniy sifatlarga bog'liqlik darajasini aniqlash, tezkorlikni rivojlantirish kabi ilmiy tadqiqotlar dunyo mamlakatlarida o'tkazilib kelinmoqda. Ammo sport natijalarini o'sib borishi yuguruvchilarni tayyorlash tizimida qisqa masofalarga yuguruvchilarni tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish talabini qo'yimoqda, bu esa soha sportchilarni nufuzli musobaqalarga tayyorlash imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilish barobarida sport natijalarini yuksalishini ta'minlashga qaratilgan metodologik asoslarni yaratish zaruririyati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda yosh avlodni jismonan sog'lom va barkamol qilib tarbiyalash, olimpiya sporti turlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, "qisqa masofalarga yugurishda tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus tayyorgarlik metodikasini ishlab chiqish¹ kabi vazifalar belgilab berilgan. Zero, startdan chiqish texnikasi, sakrash va yugurishdagi muvozanat va dinamik harakatlar tezkor-kuchga bog'liq bo'lib, ularni to'g'ri mashqlar orqali takomillashtirish musobaqa natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Biroq, qisqa masofalarga yuguruvchi respublikamiz milliy terma jamoa a'zolarining sport natijalarini jahon arenalaridagi sport natijalari bilan qiyosiy tahlil etganimizda sezilarli darajada (o'rtacha 1,0-1,1 soniyaga) ortda qolayotganliginimizni ko'rishimiz mumkin. Bu esa, qisqa masofalarga yuguruvchilarni tayyorlash tizimini ilmiy jihatdan asoslangan zamonaviy tayyorgarlik metodikasini ishlab chiqish asosida sportchilarni tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish orqali sport musobaqalariga tayyorlash masalalari bugungi kunda tanlangan dissertatsiya mavzusining dolzarb ekanligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 -yil 24-yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora tadbirlar to'g'risida" gi, 2024 yil 21-fevraldagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va beznisni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga

¹ 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5282-son "Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va "Workout" sport turlarini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risidagi"

oid davlat dasturi to'g'risidagi PF-37-son farmonlari va 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5282-son "Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va "Workout" sport turlarini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risidagi" 2024 yil 4-dekabrdagi PQ-421-son "Jamoaviy sport turlarini rivojlantirish va iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi qarorlari hamda ushbu sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda ham yengil atletikaning qisqa masofalarga yugurish turlarida ham sportchilar o'rtasida raqobatning keskinlashuvi yillik mashg'ulot jarayonini rejalashtirishning ilmiy jihatdan asoslangan variantini ishlab chiqish uslubiyatiga e'tibor qaratgan. Jumladan: R.Q.Qudratov, N.T.To'xtaboyev, K.T.Shakirjanova, M.J.Abdullayev, M.S.Olimov, Z.T.Sherov, U.I.Sultonov, I.R.Soliyev, N.R.Saidova, I.D.G'aniboyev, K.F.Ruzamuxamedov, N.B.Nazarov, Z.M.Utayevlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Shunga qaramay hali joylarda faoliyat olib borayotgan Yengil atletikaning qisqa masofalarga ixtisoslashgan talaba-sportchilar bilan o'tkazilayotgan mashg'ulotlarining tashkil etilishi, mashg'ulot yuklamalarining hajmi, shiddati, bajarilish sur'ati va samaradorligini yetarli deb bo'lmaydi. Jumladan, qisqa masofalarga yugurish turlari Olimpiyada, Osiyo hamda "Jahon Universiyada" o'yinlari qolaversa, Jahon chempionatlari dasturidan o'rin olgan yengil atletikaning asosiy turlaridan hisoblanadi. Ammo yurtimizda, erkaklar o'rtasida qisqa masofalarga yugurish turlari bo'yicha halqaro miqyosdagi sport ustalari tarbiyalanmayotganligi tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish yo'llarini izlab topish bilan bog'liq tadqiqot ishlarini amalga oshirish zaruriyati yuzaga kelmoqda².

V.B.Zelichenok, V.G.Nikitushkin, V.P.Guba, Ye.Yu.Barabankina, A.V.Balaxnichev, V.M.Zatsiorskiy, E.SONIYAOzolin, A.N.Katenkov va boshqalar tomonidan yengil atletika sport turini rivojlantirish, kelgusida yuqori sport natijalariga erishish, qisqa masofalarga yuguruvchilarni tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirishda qo'llaniladigan vosita-usullarini bajarilishi bo'yicha mashg'ulotlarni olib borish,

² Арзуманов Г.Г. Влияние тренировочных режимов на изменение показателей структурных компонентов техники бега и специальной работоспособности спринтеров. Автореферат дис. ... канд. пед. наук: 13.00.04 / Арзуманов Геннадий Георгиевич; – М., 1982. – 25 с.; Qudratov R. Yengil atletika. Darslik – T.: 2014. – 342 b.; To'xtaboyev N.T., Shakirjanova K.T., Soliyev I.R. Qisqa masofalarga yugurish uslubiyati. O'quv qo'llanma – T.: 2017. – 186 b.; Abdullayev M.J. Sport pedagogik mahoratni oshirish. Darslik. 2018. – 396 b.; Олимов М.С., Солиев И.Р. Султонов У.И. Юқори малакали спортчиларнинг кўп йиллик тайёргарлик циклидаги натижалар тахлили // Жисмоний тарбия ва спорт назарияси ва услубиётини ривожлантиришнинг замонавий тенденциялари. Халқаро илмий анжуман, ЎзДЖТСУ, Чирчиқ. 2019 йил 24-25 май. – Б.661-665.; Z.T.Sherov Qisqa masofalarga yuguruvchi talabalarning mashg'ulot jarayonini tuzishga tabaqalashtirilgan yondashuv PhD dissertatsiyasi avtoreferati. 2022. Солиев И. Р. Қисқа масофага югурувчиларни йиллик тайёргарлик машғулот юкламаларини режалаштириш. PhD диссертацияси автореферати. Чирчиқ, 2020. – 56 б.; Saidova N.R. Yuguruvchilarning yillik tayyorgarlik mashg'ulot jarayonlarini boshqarish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. 2024. – 56 b.; Soliyev I.R., Xo'jamkeldiyev G'.S., G'aniboyev I.D., Ruzamuxamedov K.F., Baratov A.M., Mirzatillayev I.I. va boshqalar // Yengil atletika o'rgatish metodikasi. Darslik. Chirchiq, 2022. – 432 b.

sportchilarni individual xususiyatlarini inobatga olgan holda rejaga kiritish, yuqori malakali sportchilarni tayyorlashda ularning integral tayyorlarlik imkoniyatlarini shakllantirish bo'yicha yetarlicha o'rganib chiqilgan.³

Xorijiy mamlakatlarni yetakchi mutaxassislaridan A.I.Ross, M.T.Leveritt, S.L.Riek, W.B.Young, B.A.McLean, J.B.Ardagna, J.L.Sheppard, J.A.Cronin, K.B.Hansen, P.C.Maulder, J.I.Cronin, M.T.Pain, A.B.Hibbs va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan pedagogik kuzatuvlar, ilmiy tadqiqotlar, statistik ma'lumotlar natajalariga ko'ra, yengil atletikaning qisqa masofalarga ixtisoslashgan talaba-sportchilar bilan o'tkazilayotgan mashg'ulotlarda rejalashtirilgan yuklamalar hajmini maqsadga muvofiq rejalashtirish, unda qo'llaniladigan vosita-usullarining nisbatlari va mashg'ulot o'tkazish joylari yillik tayyorgarlik tizimida muhim ahamiyat kasb etishi aytib o'tilgan.⁴

Xulosa qilib aytganda yengil atletikada tezkor-kuch qobiliyatini tarbiyalash, ularni mashg'ulotlar davomida shakllanish va o'sish sur'ati maxsus testlarga asoslangan tadqiqotlar asosida o'rganilgan, turli sport malakasiga mansub yengil atletikachilarga mo'ljallangan me'yoriy talablar hamda model ko'rsatkichlar ishlab chiqilganligi e'tirof etilgan. Darhaqiqat qisqa masofalarga yuguruvchi yuqori malakali sportchilarni yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarida tezkor-kuch qobiliyatini oshirish hozirgi kunda o'ta dolzarb masalalardan biri bo'lib, qisqa masofalarga yuguruvchilarni tayyorlash tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dessertatsiya tadqiqoti Shahrizabz davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlar rejasiga muvofiq V.5/2. "Murakkab yuklamalarni hisobga olgan holda sportchilarning maxsus tayyorgarligini takomillashtirish va aniqlash" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Qisqa masofalarga yuguruvchilarni tezkor-kuch qobiliyatini zamonaviy vosita usullar yordamida rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

³ Зеличенко В.Б., Никитушкин В.Г., Губа В.П. «Легкая атлетика: критерии отбора». - М. : Терра спорт, 2000 – 145 с.; Барабанкина, Е.Ю. Методика стимуляции срочного восстановления у спортсменов, специализирующихся в беговых видах легкой атлетики. Автореферат дис. канд. пед. наук: 13.00.04 / Барабанкина, Елена Юревна; РГУФК. – Волгоград., 2013. – 21 с.; Балахничев А.В. Система соревнования в многолетней подготовке бегунов -спринтеров: дис. канд.пед. наук : 13.00.04 / Балахничев Александр Валентинович; РГУФК. – М., 2004. – 161 с.; Зациорский, В.М. Физические качества спортсмена: основы теории и методики воспитания. – 3-е изд. / В.М.Зациорский. – М.: Советский спорт, 2009. – 200 с.; Озолин, Э.С. Спринтерский бег / Озолин Э.С. – М.: Человек, 2010. – 176 с.; Батыр И. Н., Методика подготовки юных легкоатлетов в беге на короткие дистанции, учебное пособие, Издательство ВГАФК, 2020. - 110 с.; Катенков А.Н., Теоретическое и экспериментальное обоснование педагогического контроля индивидуальной техники бега на короткие дистанции, дисс. канд.дисс., 2020. - 155 с.

⁴ Ross, A., Leveritt, M., & Riek, S. (2001). Neural influences on sprint running: Training adaptations and acute responses // *Sports Medicine*, 31(6), 409–425.; Young, W., McLean, B., & Ardagna, J. (1995). Relationship between strength qualities and sprinting performance // *Journal of Sports Medicine and Physical Fitness*, 35(1), pp. 13–19.; Sheppard, J. (2004). Improving the sprint start with strength and conditioning exercise // *Modern Athlete and Coach*, 42(4), - B.9-13.; Cronin, J., & Hansen, K. (2005). Strength and power predictors of sports speed // *Journal of Strength and Conditioning Research*, 19(2), 349–357.; Maulder, P., & Cronin, J. (2005). Horizontal and vertical jump assessment: Reliability, symmetry, discriminative and predictive ability // *Physical Therapy in Sport*, 6(2), 74–82.; Pain M.T. Sprint starts and the minimum auditory reaction time / M.T.G. Pain, A. Hibbs // *Journal of Sports Sciencies*. - London. - 2007. - Vol. 25, No. 1. - pp. 79-86.

Tadqiqotning vazifalari:

qisqa masofalarga yuguruvchi talaba – sportchilarni startdan chiqish texnikasini o‘zlashtirish dinamikasini aniqlash.

qisqa masofalarga yuguruvchi talaba sportchilarni jismoniy tayyorgarligini shakllanganlik darajasini aniqlash.

qisqa masofalarga yuguruvchi talaba sportchilarni tezkor – kuch qobiliyatini rivojlantirish uchun maxsus g‘ovlarni ishlab chiqish va amaliyotda undan foydalanish.

qisqa masofalarga yuguruvchi talaba sportchilarni musobaqalarga tayyorlash dasturini ishlab chiqish va samaradorligini pedagogik tajribada ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Shahrizabz davlat pedagogika institut qisqa masofalarga yuguruvchi talaba-sportchilar o‘quv mashg‘ulot jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida Shahrizabz davlat pedagogika instituti qisqa masofalarga yuguruvchi talaba-sportchilar bilan o‘tkaziladigan tayyorgarlik mashg‘ulotlari jarayonida qo‘llaniladigan vosita va usullar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy uslubiy adabiyotlarni tahlili qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, antropometrik uslub, Garmin instrumental metod, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematika-statistik kabi usulblardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qisqa masofalarga yuguruvchi talaba sportchilarni startdan chiqish texnikasini o‘zlashtirishda oyoqning to‘rt boshli yozuvchi va bukuvchi, boldirning kombolasimon va oyoq panjasi paylari hamda qorin bel mushaklarini rivojlantirish hisobiga startdan chiqish texnikasini takomillashtirish;

qisqa masofalarga yuguruvchi talaba-sportchilarni turli mikrotsikllar (hajmli, shiddatli, zarbdor, nazorat va musobaqa oldi) jarayonida 0.5 kgdan 1 kggacha bo‘lgan manjetlarni oyoqning to‘pik qismiga taqib turli balandlikdagi g‘ovlar ustidan sakrab bajariladigan mashqlar seriyasini qo‘llash hisobiga, maxsus jismoniy tayyorgarligi takomillashtirilgan;

qisqa masofalarga yuguruvchi talaba-sportchilarni tayyorgarlik mashg‘ulotlarida ishlab chiqilgan maxsus g‘ovlar to‘plami bilan yugurib va sakrab bajariladigan mashqlar kompleksini kiritish hisobiga sprinterlarni tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirishga erishilgan;

qisqa masofalarga yuguruvchi talaba sportchilarni musobaqalarga tayyorlash mizotsikllarida jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan dasturni ishlab chiqishda shiddatli o‘sib boruvchi bitta me‘yorlashtiruvchi mikrotsikllarni mashg‘ulot jarayoniga kiritish hisobiga sportchilarni musobaqalarga tayyorlash imkoniyatlari oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagi erishildi:

startdan chiqish texnikasini takomillashtirish maqsadida oyoqning to‘rt boshli mushaklari, boldirning kombolasimon mushaklari, oyoq panjasi paylari va qorin-bel mushaklarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar kompleksi ishlab chiqildi. Bu esa qisqa masofalarga yuguruvchi sportchilarning startdan chiqishdagi dinamikasini va harakat tezkorligini sezilarli darajada yaxshiladi;

sportchilarda maxsus jismoniy tayyorgarlik, oyoqlardagi tezkor-kuch ko'rsatkichlari oshirishda mikrotsikllar (hajmli, shiddatli, zarbdor, nazorat va musobaqa oldi) jarayonida sportchilarning to'piq qismiga 0.5 kgdan 1 kggacha bo'lgan manjetlar taqilgan holda, turli balandlikdagi g'ovlar ustidan sakrab bajariladigan mashqlar seriyasi qo'llanildi;

sportchilarning harakat motorikasini, muvozanatni saqlash qobiliyatini va dinamik tezkorlikni rivojlantirishga yordam beruvchi maxsus g'ovlar to'plami bilan yugurib va sakrab bajariladigan mashqlar kompleksi tayyorgarlik mashg'ulotlariga kiritildi;

qisqa masofalarga yuguruvchi talaba sportchilarni musobaqalarga tayyorlash mizotsikllarida jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan dasturni ishlab chiqishda shiddatli o'sib boruvchi qisqa masofalarga yuguruvchi talaba sportchilarni musobaqalarga tayyorlash mezotsikllari uchun ishlab chiqilgan uchtagacha shiddatli o'sib boruvchi va bitta me'yorlashtiruvchi mikrotsikllarni mashg'ulot jarayoniga kiritish natijasida sportchilarni sport natijadorligi oshishi ilmiy asoslab berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi

Pedagogik tadqiqot natijalarining ishonchliligini bilish nazariyasi (dialektik bilish uslubiyati) va uslubiyati mamlakatimizda va xorijiy mamlakatlarning, shuningdek jismoniy tarbiya va sport nazariyasi amaliyoti sohasida xizmat ko'rsatgan yetakchi olimlar va mutaxassislarining ilmiy qarashlari bilan asoslangan. Bir birini o'zaro to'ldirgan tadqiqot vazifalariga mos keladigan tadqiqot uslublarining qo'llanilganligi, tadqiqot natijalarining sifat jihatidan ta'minlanganligi, tadqiqot ishlari va nazarat sinovlarini oshkoraligi hamda olingan tadqiqot natijalarini hisoblashda matematik statistik usullar qo'llanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, qisqa masofalarga yuguruvchi sportchilarda startdan chiqish texnikasini takomillashtirish uchun mushak guruhlarini maqsadli rivojlantirish, fiziologik va biomexanik ko'rsatkichlarni zamonaviy usullar orqali tahlil qilish, manjetlar bilan g'ovlar ustidan sakrab bajariladigan mashqlar tizimli ravishda o'rganish, ularning maxsus jismoniy tayyorgarlikka ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilish, maxsus g'ovlar to'plami bilan mashqlar kompleksi sportchilarning tezkor-kuch imkoniyatlarini rivojlantirishda samarali ekanligi bilan belgilandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, mikrotsikllarning moslashtirilgan va shiddatli o'sib boruvchi turlarini tadqiq etish orqali musobaqa oldi tayyorgarlik siklini takomillashtirish, maxsus mashqlar kompleksi sport maktablari va OTMlaridagi yugurish bilan shug'ullanuvchi talaba-sportchilar uchun foydalanish, sportchilarning tayyorgarlik jarayonini individual ravishda rejalashtirish, yuklamalarni to'g'ri taqsimlash va natijadorlikni oshirish, musobaqalarga tayyorgarlikda mikrotsikllarning ilmiy asosda tanlangan va moslashtirilgan turlaridan foydalanish mashg'ulot jarayonini tizimlashtirishga va optimallashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qisqa masofalarga yuguruvchilarning tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish metodikasini rivojlantirish asosida:

qisqa masofalarga yuguruvchi talabalarni jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun tayyorgarlikdagi mashg'ulotlarida turli balandlikdagi g'ovlardan yugurib va sakrab

bajariladigan oyoqning bukuvchi va yozuvchi mushaklarini yuqori tempda ishlashi orqali portlovchi-kuch hamda qo‘l harakatini maksimal harakatlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar Shahrizabz davlat pedagogika instituti qisqa masofalarga yuguruvchi talaba-yoshlar mashg‘ulotlar jarayoniga tatbiq etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sport Vazirligining 2025-yil 24-apreldagi 02-16/4198-son ma‘lumotnomasi). Natijada, qisqa masofalarga yuguruvchi talaba-yoshlarni tezkor-kuch qobiliyati 11 % ga yaxshilangan;

talaba-sportchilarni tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish uchun mashg‘ulotlar mezosiklida og‘ir atletika vositalaridan foydalangan holda regressiv yuklamalarni sportchi vaznini inobatga olgan holda og‘irliklar oshirilib har bir mashqni maksimal shiddatda qo‘llash orqali mushak tolalari faolligini ta‘minlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar Termiz davlat universiteti qisqa masofalarga yuguruvchi talaba-yoshlarning mashg‘ulotlar jarayoniga tatbiq etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sport Vazirligining 2025-yil 24-apreldagi 02-16/4198-son ma‘lumotnomasi). Natijada, qisqa masofalarga yuguruvchilarda tezlik sifati 7 % ga yaxshilangan;

qisqa masofalarga yuguruvchi talaba-sportchilarni umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishda submaksimal shiddat zonasida anaerob-alaktat va maksimal shiddat zonasida anaerob-glikolitik jarayonga oraganizmni moslashtirish orqali belgilangan masofalarni bo‘laklab yugurib o‘tish bo‘yicha taklif va tavsiyalar Namangan davlat pedagogika instituti qisqa masofalarga yuguruvchi talaba-yoshlarning mashg‘ulot jarayonlariga tatbiq etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sport Vazirligining 2025-yil 24-apreldagi 02-16/4198-son ma‘lumotnomasi). Natijada, texnik tayyorgarligida nafas olish ritmini takomillashtirish asosida qadam uzunligi va soni, qadam chastotasi samaradorligini oshirish hisobiga sport natijalari 10 % ga yaxshilangan;

qisqa masofalarga yuguruvchilarni tayyorlash uchun kuch va tezlikni bir vaqtda rivojlantiruvchi qarshilik bilan mashq qilish imkonini beruvchi yugurish fazalarining individual xususiyatlarini tahlil qilish, sportchining tezkor-kuch nisbatini optimalashtirishda zamonaviy texnologiyalar yordamida tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish bo‘yicha taklif va tavsiyalar Shahrizabz davlat pedagogika instituti qisqa masofalarga yuguruvchi talaba-yoshlar mashg‘ulotlar jarayoniga tatbiq etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sport Vazirligining 2025-yil 24-apreldagi 02-16/4198-son ma‘lumotnomasi). Natijada, tajriba guruhi sinaluvchilarida tezkor-kuch qobiliyati 6 % ga yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola (1 ta xalqaro va 3 ta respublika jurnallarida) hamda 6 ta tezis (3 ta respublika va 3 ta xalqaro konferensiya to‘plamida) nashr qilinib muhokamadan o‘tkazilgan.

Dissertatsiya hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bobdan iborat, 131 sahifalik matn, 26 ta jadval, 3 rasm, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va uning zaruriyati, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotini bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati va ularni amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi va e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha to'liq ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Qisqa masofalarga yuguruvchilarni yillik mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarni rivojlantirish, yuklamalarni taqsimlanishi, zamonaviy texnologiyadan foydalanish, tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirishda vosita usullar qo'llanishi bo'yicha adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida qisqa masofalarga yuguruvchilarning yillik mashg'ulotlarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish, yillik mashg'ulotlarda yuklamalarni taqsimlanishi bo'yicha zamonaviy o'quv-uslubiy adabiyotlar, yangi metodikalarni amaliyotga joriy qilinish yuzasidan fikr va mulohazalar o'rganilgan.

Yengil atletikaning qisqa masofalarga yugurish turi bugungi kunda ommalashgan sport turlaridan biri sanaladi. Chunki, Respublikamiz hududlarida qisqa masofalarga yugurish umumta'lim maktablari, ixtisoslashgan olimpiya zahiralaari maktablari, sport maktablari, Oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlaridan o'rin olgan bo'lib, o'quvchi yoshlar, talabalar va aholi muntazam shug'ullanib kelayotgan sport turlaridan hisoblanadi. Hamyurtlarimiz o'quv dasturlari va sport musobaqalarida ishtirok etish bilan bir qatorda ichki chempionatlar hamda xalqaro musobaqalarda ham doimiy ravishda ishtirok etib kelmoqda. Albatta bu quvonarli hol, ammo ularning ko'rsatayotgan sport natijalari past darajada shakllangan, sportchilarimizni ichki chempionatlarda natijalar qoniqtirsada, nufuzli xalqaro musobaqalarda ko'rinmayotganligi yillik va ko'p yillik mashg'ulotlarni rejalashtirishdagi xato va kamchiliklar mavjudligi hisobiga sport natijalaridan ortda qolayotganligimizga sabab bo'lmoqda.

Sprinterlar uchun olib boriladigan mashg'ulot yuklamalari yuzasidan ko'plab olimlar fikr va mulohazalar yuritishgan. Jumladan, L.D.Nazarenko, M.O.Markin, A.A.Yegorova va Yu.D.Romonova kabi olimlar yuguruvchilarning yillik mashg'ulot jarayonlarini boshqarish uch davrga bo'linadi deb aytib o'tishadi. Ya'ni tayyorlov davri 5-6 oyni tashkil etadi deb ta'kidlab o'tishgan. Bu tayyorgarlik davrining sentabr-oktabr, mart-aprel oylari, hamda iyun-iyul oylarini o'z ichiga oladi. Musobaqa davri esa 4-5 oyni bu may oyidan boshlab to sentabr oyigacha davom etishi haqida aytib o'tilgan. O'tish davri esa bir oy davom etishi haqida o'zlarining tadqiqotlarida ko'rsatib o'tishgan.

Sportning boshqa turlari bilan bog'liq ilmiy izlanishlarda mashg'ulot vositalarini taqsimlash masalalariga turlicha yondashilgan. Yuqori malakali suzuvchilarning tayyorgarlik amaliyoti yil davomida mashg'ulot siklini turlicha tuzish imkoniyati borligini ishonarli qilib ko'rsatadi. Sportning tezkor chidamlilikni va maxsus

chidamlilikni talab qiluvchi (oʻrta va uzoq masofalarga yugurish, sportcha yurish turlarida) turlari uchun rejalashtirish modelini taklif qiladilar; bu model tayyorgarlik yuklamalarining quyidagi ketma-ketligidan iboratligini koʻrsatadi: 1 umumiy chidamlilik; 2 tezkorlik; 3 tezkor chidamliligi. Tayyorgarlikning butun sikli musobaqalarning masʼul bosqichlariga kuch va tezlikka chidamlilikni rejali rivojlantirib borishga qaratilgan. Bunda tayyorgarlik davrlarida albatta kuchni rivojlantiruvchi mashqlarni qoʻllashni taklif etgan (M.Olimov, I.Soliyev, A.Baratov).

Yuqoridagi tahlillarga koʻra, oʻquv – mashgʻulot jarayonlarda kursant qizlarning umumiy va maxsus tayyorgarligini rivojlantirish uchun toʻrt haftalik mikrisikllarda tezkor-kuch va chaqqonlik koʻrsatkichlarini oshirishga qaratilgan krossfit dasturini ishlab chiqish hisobiga kursant qizlarning jismoniy tayyorgarligi va qayta axborot olish ularni maxsus jismoniy tayyorgarligini shakllantirish dolzarblik kasb etadi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning usullari va tashkil etilishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot oldiga qoʻyilgan vazifalarni hal etish uchun ilmiy uslubiy adabiyotlarning tahlili, pedagogik kuzatuv, anketa soʻrovnomasi, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, pulsometriya, instrumental, matematik-statistika usullari va garmin texnologiyasidan foydalanganligi bayon etilgan.

Birinchi bosqich (2024 yanvar- aprel) tadqiqotning umumiy yoʻnalishi belgilangan; bugungi kunda muammoning holatiga baho berish uchun maxsus ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlilidan oʻtkazildi; tadqiqotchining mavzusi shakllantirildi; tadqiqotchining muvofiq usullari tanlandi; tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlandi; maʼlumotlarning keyingi tahlili va umumlashtirilishi uchun dastlabki materiallar toʻplandi; sport mashgʻulotlari nazariyasi hamda amaliyotida oʻrganilayotgan muammoni hal etishga yordam beradigan mavjud chora-tadbirlari oʻrganildi;

Ikkinchi bosqichda (2024 aprel-avgust) bir qator vazifalarni oʻz ichiga oladi: tajriba obyektlarining zarur miqdorini tanlab olish (sportchilar soni); ilmiy tajriba oʻtkazishning zarur davomiyligini aniqlash, tajriba obektining dastlabki holatini oʻrganish uchun muayyan usullarni tanlash, tekshiriluvchilarning kichkina guruhida usullarning qulay hamda samaradorligini tekshirish, tegishli pedagogik taʼsirlar natijasida tajriba obyektida sodir boʻlayotgan oʻzgarishlar xususida fikr yuritishga imkon beradigan belgilarni aniqlash.

Uchinchi bosqichda (2024sentabr - 2025 yanvar) asosiy ishlab chiqilgan uslubiyatning samaradorligini tekshirish uchun ilmiy tajribalar oʻtkazishga yoʻnalitirilgan. Bu bosqich quyidagi bosqichlardan iborat: pedagogik tajribaga Termiz davlat universiteti, Namangan davlat pedagogika instituti va Shahrisabz davlat pedagogika institutining oʻquv mashgʻulot guruhi qisqa masofalarga yuguruvchi talaba-yoshlardan 24 nafari jalb etilib, tajriba guruhi sinaluvchilarini texnik, taktik va funksional tayyorgarlik holatlari oʻrganildi hamda maxsus metodika orqali tayyorgarlik komponentlari takomillashtirildi. Nazorat guruhi qisqa masofalarga yuguruvchilari amaldagi yillik dasturga asoslangan mashgʻulotda ishtirok etishdi.

Dissertatsiyaning **“Qisqa masofalarga yuguruvchilarni jismoniy tayyorgarlik darajasi, texnik tayyorgarligi va mushak kuchini shakllanganligi hamda funksional xolatini tuzilishi”** deb nomlangan uchinchi bobida qisqa masofalarga yuguruvchilarni jismoniy tayyorgarligini shakllanganlik darajasi, tezkor–kuch

qobiliyatini shakllanganlik darajasi, texnik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi, jismoniy rivojlanishi va funksional tayyorgarligini tuzilishi, tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantiruvchi zamonaviy tayyorgarlik metodikasini amaliyotda qo'llanishi barafsil yoritib o'tilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Pedagogik tajriba boshida talaba sportchilarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining qoyosiy tahlili (n = 24)

T/r	Ko'rsatkichlar	Tajriba guruhi			Nazorat guruhi			t	P
		\bar{X}	σ	V, %	\bar{X}	σ	V, %		
1	20 metrga pastki startdan yugurish (soniya)	3,36	0,44	13,10	3,44	0,43	12,50	0,45	>0,05
2	30 metrga pastki startdan yugurish (soniya)	4,46	0,67	15,02	4,61	0,68	14,75	0,55	>0,05
3	60 metrga pastki startdan yugurish (soniya)	8,47	1,18	13,93	8,38	1,14	13,60	0,37	>0,05
4	100 metrga yugurish (soniya)	13,47	2,01	14,92	13,41	1,96	14,62	0,50	>0,05
5	150 metrga yugurish (soniya)	19,98	2,79	13,96	20,37	2,78	13,65	0,34	>0,05
6	200 metrga yugurish (soniya)	26,22	3,4	12,97	25,61	3,23	12,61	0,45	>0,05
7	Joyidan turib uzunlikka sakrash (sm)	242,92	36,38	14,98	239,25	35,01	14,63	0,25	>0,05
8	Joyidan turib uch hatlab sakrash (sm)	660,83	85,57	12,95	674,63	85,13	12,62	0,40	>0,05
9	2 kg.li to'ldirma to'pni bosh ortidan ikki qo'llab oldinga uloqtirish (sm)	874,58	122,27	13,98	904,27	122,97	13,60	0,59	>0,05

Izoh: \bar{X} – o'rtacha qiymat (mean) σ – standart og'ish (standard deviation) V% – variatsiya koeffitsienti (coefficient of variation), t-test statistikasi P – ehtimollik darajasi (statistik ahamiyatlilik).

Jumladan, o'rganilgan 1-testimiz 20 mga pastki startdan chiqib yugurish bo'yicha tajriba boshida nazorat guruhi sportchi talabalari natijalarining o'rtacha $3,44 \pm 0,43$ soniyani tashkil etdi. Tajriba guruhida mazkur ko'rsatkichlar $3,36 \pm 0,44$ soniyaga teng ekanligi aniqlandi. Ushbu test ko'rsatkichlari bo'yicha nazorat va tajriba guruhlari tajriba boshida ko'rsatgan natijalari o'rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut farqi 0,08 soniyani va ular o'rtasidagi (nazorat guruhi mos ko'rsatkichiga nisbatan) nisbiy farq esa 2,38% ni tashkil etganligi aniqlandi.

30 metrga pastki startdan yugurish bo'yicha tajriba boshida nazorat guruhi sportchi talabalari natijalarining o'rtacha arifmetik va standart og'ish qiymatlari $4,61 \pm 0,68$ soniyaga teng bo'lgan bo'lsa, tajriba guruhida mazkur ko'rsatkichlar ortacha

4,46±0,67 soniyani tashkil etdi. Ushbu test ko'rsatkichlari bo'yicha nazorat va tajriba guruhlari tajriba boshida ko'rsatgan natijalari o'rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut farqi 0,15 soniyani va ularning (nazorat guruhi mos ko'rsatkichiga nisbatan) nisbiy farqi 3,36% ni o'sganligi aniqlandi.

60 metrga pastki startdan yugurish bo'yicha tajriba boshida nazorat guruhi sportchi talabalari natijalarining o'rtacha arifmetik $8,38 \pm 1,14$ soniyaga teng bo'lgan bo'lsa, tajriba guruhida mazkur ko'rsatkichlar o'rtacha $8,47 \pm 2,01$ soniyaga teng ekanligi aniqlandi. Ushbu test ko'rsatkichlari bo'yicha nazorat va tajriba guruhlari tajriba boshida ko'rsatgan natijalari o'rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut farqi 0,17 soniyani va ularning (nazorat guruhi mos ko'rsatkichiga nisbatan) nisbiy o'sish farqi 2,10% ni tashkil etganligi aniqlandi.

100 metrga pastki startdan yugurish bo'yicha tajriba boshida nazorat guruhi sportchi talabalari natijalarining o'rtacha arifmetik va standart og'ish qiymatlari $13,41 \pm 1,96$ soniyaga teng bo'lgan bo'lsa, tajriba guruhida mazkur ko'rsatkichlar $13,47 \pm 2,01$ soniyaga teng ekanligi aniqlandi. Ushbu test ko'rsatkichlari bo'yicha nazorat va tajriba guruhlari tajriba boshida ko'rsatgan natijalari o'rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut farqi 0,38 soniyani va ularning (nazorat guruhi mos ko'rsatkichiga nisbatan) nisbiy farqi 2,95% ni tashkil etdi.

Joyidan turib uzunlikka sakrash bo'yicha tajriba oxirida nazorat guruhi sportchi talabalari natijalarining o'rtacha arifmetik qiymatlari $239,25 \pm 35,01$ smni tashkil etgan bo'lsa, tajriba guruhida mazkur ko'rsatkichlar $242,92 \pm 36,38$ smga teng bo'ldi. Ushbu test ko'rsatkichlari bo'yicha nazorat va tajriba guruhlari tajriba boshida ko'rsatgan natijalari o'rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut o'sish farqi 3,67 sm. ni va ularning (nazorat guruhi mos ko'rsatkichiga nisbatan) nisbiy osish farqi 1,51 % ni tashkil etganligini pedagogik tajribada aniqlandi.

2 kgli to'ldirma to'pni bosh ortidan ikki qo'llab oldinga uloqtirish bo'yicha tajriba boshida nazorat guruhi sportchi talabalari natijalarining o'rtacha arifmetik qiymatlari $904,27 \pm 122,97$ smga teng bo'lgan bo'lsa, tajriba guruhida mazkur ko'rsatkichlar $874,58 \pm 122,27$ smni tashkil qildi. Ushbu test ko'rsatkichlari bo'yicha nazorat va tajriba guruhlari tajriba oxirida ko'rsatgan natijalari o'rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut o'sish farqi 29,69 sm. ni va ularning (nazorat guruhi mos ko'rsatkichiga nisbatan) nisbiy osish farqi 3,39% ni tashkil etganligi aniqlandi. Alohida qayd etib o'tish lozimki, sport zaxiralarini tayyorlash boshqaruvning samaradorligini oshirish uchun, barcha sport yo'nalishlari uchun yagona bo'lgan to'g'ri uslubiy tizim qoidalariga rioya qilish muhim omil hisoblanadi. U yoki bu tizimning samaradorligini aniqlash qiyosiy tahlil yordamida amalga oshiriladi.

Tadqiqot boshida tajriba va nazorat guruhi 100 metr masofaga yugurish ko'rsatkichlari aniqlandi hamda tahlil qilindi. Jadvalga asosan tajriba va nazorat guruh sinaluvchilarini 100 m masofaga yugirishda (Garmin ko'rsatkichlari) asosida aniqlandi. Unga ko'ra 100 m masofaga yugurish tajriba guruh sinaluvchilarida o'rtacha 13,41 soniya bo'lsa, tajriba guruh sinaluvchilarida 13,47 soniya ekanligini ko'rish mumkin (2-jadvalga qarang).

2-jadval

**Tadqiqot boshida 100 metr yugurish natijalarining qiyosiy tahlili
(Garmin ko'rsatkichlari asosida)**

Ko'rsatkichlar	100m (s)	Yurak urishi (bpm)	Temp (daq/km)	Kadens (qadam/daq)	SpO ₂ (%)	Mashqdan keyin tiklanish vaqti (min)	Kontakt vaqti (ms)	Energiya sarfi kkal
Tajriba guruhi								
\bar{X}	13,47	172,58	128,67	172,67	85,50	14,67	260,00	757,00
σ	2,01	28,58	28,47	28,98	15,17	2,81	43,71	121,68
V, %	13,93	16,33	22,13	16,78	17,74	19,15	16,81	16,07
Nazorat guruhi								
\bar{X}	13,41	173,00	125,00	174,33	90,21	14,08	255,17	729,50
σ	1,96	27,55	23,67	29,09	16,04	2,50	45,79	122,14
V, %	14,62	15,92	18,94	16,69	17,78	17,76	17,94	16,74

Yurak urishi esa tajriba guruhi sinaluvchilarida o'rtacha 172,58 marta, nazorat guruh sinaluvchilarida 173,00 marta ekanligi aniqlandi. Temp tajriba guruh sinaluvchilarida 128,67 soniya/km bo'lsa, nazorat guruh sinaluvchilarida 125,00 soniya/km ekanligi aniqlandi. Kadens tajriba guruh sinaluvchilarida o'rtacha 172,67 qadam/daq bo'lsa, nazorat guruh sinaluvchilarida o'rtacha 174,33 qadam/daq ekanligi aniqlandi. O'pkaning tiriklik sig'igimi maksimal kislarod tajriba guruh sinaluvchilarida o'rtacha 85,50 % bo'lsa nazorat guruh sinaluvchilarida 90,21 % ekanligini ko'rish mumkin. Recover time (mashqdan keyin tiklanish vaqti) tajriba guruh sinaluvchilarida 14,67 daqiqa bo'lsa, nazorat guruh sinaluvchilarida 14,08 daqiqa ekanligi aniqlandi. Kontakt vaqti (yuguruvchini yerga oyog'ini tegib turgan vaqti) tajriba guruh sinaluvchilarida o'rtacha 260,00 ms bo'lsa, nazorat guruh sinaluvchilarida o'rtacha 255,17ms ekanligi aniqlandi. Energiya sarfi esa tajriba guruhi sinaluvchilarida o'rtacha 757,00 kkal bo'lsa, nazorat guruh sinaluvchilarida o'rtacha 729,50 kkal ekanligi ko'rish mumkin. Yuqorida keltirilgan tajriba va nazorat guruh sinaluvchilarining 100 m masofaga yugurish natijalari deyarli bir xildir. Bu esa, biz tomonimizdan tadqiqot olib borishimizga ilmiy asos bo'la oladi.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan metodika qisqa masofalarga yuguruvchilarni tayyorgarlik mashg'ulotlari ishlab chiqilgan turli balandlikdagi g'ovlar to'plami bilan yugurib va sakrab bajariladigan mashqlar kompleksi mashg'ulotlar jarayonida tadbiq etildi. Ushbu yuklamalarni bajarishda qisqa masofalarga yuguruvchi sportchilarni turli tayyorgarlik mikrotsikllar (shiddatli, zarbdor, nazorat va musobaqa oldi) jarayonida 0.5 kgdan 1 kkgacha bo'lgan manjetlarni oyoqning to'pik qismiga taqib turli balandlikdagi g'ovlar ustidan sakrab bajariladigan mashqlar qo'llanib borildi. Qolversa sport natijasini o'sishiga ham ijobiy ta'sir etadi.

Qisqa masofalarga yugurish turlarida yuqori sport natijalariga erishish sportchilar oyog'ining bukuvchi va yozuvchi mushaklarini yuqori tempda ishlashi natijasida portlovchi kuchi hamda qo'l harakatini maksimal harakatlanishi natijasini belgilab beradi. Demak qisqa masofalarga yuguruvchilar uchun ularni tezkor-kuch sifatlarini

yuqori darajada shakllanganligi yugurish natijasiga ijobiy ta'sir etishini ko'rsatadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda tajriba guruh sportchilari uchun mashg'ulotlarda quyidagi o'yin mashqlari qo'llanildi;

- kengurucha 20-30 m sakrab yugurish,
- lyagushka usulida 20-30 m sakrab yugurish,
- diogonal bo'ylab oyoqdan-oyoqqa sakrab yugurish,
- turli 20-30-40-50-60-70-80-90-100 sm bo'yga ega bo'lgan g'ovlar ustidan takroriy o'zgaruvchan usullarda sakrash mashqlarini qo'llash.

Yuqorida ushbu qo'llanilgan mashqlar qisqa masofalarga yuguruvchilarni tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Qisqa masofalarga yuguruvchilar uchun ishlab chiqilgan tezkor-kuch va tezkorlik sifatini rivojlantirish metodikasi

T/r	Mazmuni	Me'yor	Tashkilish uslubiy ko'rsatmalar
1	500 gramli manjetlar oyoqlarning boldir qismiga taqiladi va 30m masofaga qo'yilgan 10ta g'ovdan yugurib o'tiladi.	4-6x30 m 4-6x20 m 4-6x30 m	Dastlab sekinroq yugurish bilan bajarish maqsadga muvofiq
2	30m masofaga 10 ta 30-40-60-80 sm g'ovlar qo'yilib, ushbu g'ovlar ustidan oralig'idan sakrab o'tish mashqi bajariladi. Ushbu mashqni qo'llashda dam olish oralig'ini qo'llagan holda takrorlanadi.	4-6x30 m	Ushbu mashqni bajarishda oyoqlarni ko'tarish, gavdani to'g'ri tutish, depsinishda tizzalarni to'g'ri harakatga keltirish
3	1 kg manjetlar bilan 20-40-60 sm g'ovlar oralig'ini juft oyoqda ustidan sakrab o'tish. Takroriy dam olish oralig'i usulida bajariladi.	4-6x20 m 4-6x30 m	Mashqni ikki oyoqda juft holatda g'ovlar ustidan sakrab-sakrab bajariladi.
4	1 kg manjetlar bilan 10 m masofaga qo'yilgan 10 ta g'ovning yon tomonidan dastlab o'ng keyin chap tomondan oyoqlarni olib o'tish mashqini bajarish.	4x10 6x10 8x10	Mashqni bajarishda g'ovga yaqin olib bormasdanuning ustidan olib o'tish kerak
5	80 sm g'ovlar ustidan yon (o'ng va chap) tomondan 10 m masofadan oyoqlar 90° burchak ostida mashqni bajarishga e'tibor qatildi.	4x20 4x30	Mashqni bajarishda oyoqlarni xarakat faoliyatida to'g'ri bajarish va uni nazorat qilib borish

Ushbu ishlab chiqilgan metodika bo'yicha sportchilarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligiga qarab mashg'ulotning hajmi va tayyorgarlik davrlarida qaytarishlar soni o'zgartirish murabbiy tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Yengil atletikachilarni tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirishda og'ir atletika mashqlaridan foydalangan holda shtanga bilan bajariladigan mashqlar kompleksidan ham foydalanishga e'tibor qaratildi. Ya'ni shtanga bilan bajariladigan mashqlardan shtangani yelkaga ko'tarish, yelkadan yuqoriga siqib ko'tarish, shtanga grifini yelkaga qo'yib sakrash, shtangani yuqoriga tez tortib ko'tarish, shtangani tizzagacha ikki qo'lda tortib ko'tarish, shtangani yelkaga ko'tarib o'tirib turish, shtangani

ko'krakkacha tortib ko'tarish kabi vositalar saralandi hamda ularni me'yori ishlab chiqildi (4-jadvalga qarang).

4-jadval

Qisqa masofalarga yuguruvchilarni tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish metodikasini tuzulishi 1-reja bo'yicha

Mashq nomi	Meyor sportchi tana vaznini hisobga olgan holda (og'irlik) kg	Takror	Urunish	Dam olish oralig'i	Shiddat
Dast ko'tarish	50 %	3-4 marta	4 -imkoniyat	1 daqiqa	90 %
Ko'krakdan shtangani siqib ko'tarish	60 %	6-8 marta	4 -imkoniyat	0,5-1 daqiqa	70 %
Yelkada shtanga bilan o'tirib turish	70%	5-6 marta	4 -imkoniyat	0.5-1 daqiqa	80 %
Yelkada shtanga bilan balandlikga sakrash (30sm)	30%	8-10 marta	5 -imkoniyat	1 daqiqa	80 %

Biz tadqiqotimiz davomida qisqa masofalarga yuguruvchilarni tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan uchta bosqichli reja ishlab chiqildi. Xar bir rejani qo'llash metodikasi mavjud. 1-rejada dast ko'tarish, ko'krakdan shtangani siqib ko'tarish, yelkadan shtanga bilan o'tirib turish hamda yelkada shtanga bilan balandlikka sakrash mashqlarini sportchilar tana vaznini hisobga olgan holda og'irlik foiz nisbalari belgilandi (5-jadvalga qarang).

5-jadval

Qisqa masofalarga yuguruvchilarni tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish metodikasini tuzulishi 2-reja bo'yicha

Mashq nomi	Meyor sportchi tana vaznini hisobga olgan holda (og'irlik) kg	Takrorlash soni	Urunish	Dam olish oralig'i	Shiddat
Siltab ko'tarish	70 %	3-4 marta	4 Urunish	0.5-1 daqiqa	90 %
Yelkadan shtangani siqib ko'tarish	30 %	4-6 marta	5 Urunish	0,5-1 daqiqa	70 %
Yelkada shtanga bilan uzunlikka sakrash	30%	8-10 marta	4 Urunish	1 daqiqa	80 %
Yelkada shtanga bilan yurish sportchining	40%	16-20 qadam	-	-	95 %

Shu bilan birga ushbu rejada saralangan vositalarni takrorlash soni, urinishlar, dam olish oraliq me'yorlari ishlab chiqildi. Ushbu vositalarni bajarish shiddati ham belgilab qo'yildi.

Shu bilan birga qisqa masofalarga yuguruvchilarni tezkor-kuch qobiliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish maqsadida navbatdagi mashg'ulotlar uchun ikkinchi reja ham tuzildi. Ikkinchi rejada asosan qisqa masofalarga yuguruvchilarni tezkor-kuch

qobiliyatini shtangani siltab ko‘tarish, yelkadan shtangani siqib ko‘tarish, yelkada shtanga bilan uzunlikka sakrash hamda yelkada shtanga bilan yurish kabi o‘gir atletika vositalari saralandi hamda ularni qo‘llash uslubiyati ishlab chiqildi (5-jadvalga qarang).

Yuqorida jadvalda keltirilgan ikkinchi rejada qisqa masofalarga yuguruvchilarni tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantiruvchi vositalarni davomiyligi o‘zgartirildi. 1-rejagi vositalarga moslashgani sababli navbatdagi rejada tanlangan vositalarni shiddati oshirib borildi. Jumladan siltab ko‘tarish mashqi sportchi tana vaznini hisobga olgan holda og‘irlik 70 % ni, 3-4 marta takrorlash, 4ta urinish, takrorlashlar oraliqidagi dam olish esa 0,5 dan 1 daqiqagacha belgilandi. 90% shiddatda amalga oshirildi.

Yelkadan shtangani siqib ko‘tarish esa 30 % og‘irliklar bilan, 4-6 marta takrorlash, 5 ta urinish, takrorlashlar oraliqidagi dam olish 0,5 dan 1 daqiqagacha 70 % shiddatda amalga oshirildi. Yelkada shtanga bilan uzunlikka sakrash mashqi esa sportchi vaznini hisobga olgan holda 30 % og‘irlik 8-10 takrorlash, 4 ta urinish, takrorlashlar oraliqidagi dam olish 1 daqiqa, 80 % shiddat bilan amalga oshirildi. Yelkada shtanga bilan yurish 40 % og‘irlikda, 16-20 qadam 95 % shiddatda amalga oshirildi. Ushbu rejada takrorlash va urinishlar soni ortib borildi.

Shu bilan birga qisqa masofalarga yuguruvchilarni tezkor-kuch qobiliyatini optimal rivojlantirish maqsadida uchinchi reja ham ishlab chiqildi (6-jadvalga qarang).

6-jadval

Qisqa masofalarga yuguruvchilarni tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish metodikasini tuzulishi 3-reja bo‘yicha

Mashq nomi	Meyor sportchi tana vaznini hisobga olgan holda (og‘irlik) kg	Takror	Urunish	Dam olish oralig‘i	Shiddat
Dast ko‘tarish kengligida shtangani ko‘krakga tortish	70 %	4-6 marta	5 -imkoniyat	0.5-1 daqiqa	90 %
Shtangani keng ushlagan holda bosh orqasidan siqib ko‘tarish	45 %	6-8 marta	4 -imkoniyat	0,5-1 daqiqa	70 %
Yelkada shtanga bilan o‘tirib turish	80%	3-4 marta	5 -imkoniyat	0.5-1 daqiqa	80 %
Balandlikka sakrash (30sm.)	40%	10-12 marta	5 -imkoniyat	1 daqiqa	95 %

Yuqorida jadvalda keltirilgan rejada mashqlar oralig‘ida mushaklarni tiklash uchun 1–2 daqiqalik faol dam olish tavsiya etildi. Har bir mashq to‘g‘ri bajarilish texnikasiga qat‘iy rioya qilishga e‘tibor qaratildi. Uchinchi rejada progressive yuklamalarga e‘tibor qaratildi. Bunda og‘irliklar asta-sekinlik bilan orttirildi, mashqlar haftasiga kamida 2-3 marotaba bajarildi. Shu bilan birga maksimal intensivlik har bir mashq shiddatli usulda, tezkor mushak tolalari faolligini ta‘minlovchi rejimda bajarildi. Ushbu rejada asosan shug‘ullanuvchilarni individuallashtirishga yo‘naltirilgan yuklama

qo'llashga e'tibor qaratildi. Bunda qisqa masofalarga yuguruvchilar tana vazni va funksional ko'rsatkichlariga moslashtirildi. Yuguruvchilar organizmiga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatildi. Yuqori tana (shtanga bilan mashqlar) va pastki tana (sakrash mashqlari) mushak guruhlarini birgalikda faollashtirdi. Ushbu rejadan foydalangandan keyin mashqlar kompleksi orqali qisqa masofalarga yuguruvchilarda quyidagi natijalarga erishildi. Jumladan start va tezlanish bosqichida kuchli portlovchi harakatlarni bajarish qobiliyati oshadi, muskul massasining kuch-gipotrofik holatda o'sishi ta'minlanadi, koordinatsiya, dinamika va muvozanat sezilarli darajada yaxshilanadi hamda yarim yillik davr mobaynida yuguruvchilarning 30 m, 60 m va 100 m masofalardagi natijalari o'rtacha 3–5% ga yaxshilanishi kuzatiladi.

Sportchilarni tayyorlashning strategik rejasini ishlab chiqishda shuni e'tiborga olish lozimki, tezlik, kuch va shiddat bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar hisoblanadi. Ular organizmning yaxlit tizimi orqali ta'minlanadi. Og'ir kuchli ishda mushak tolalari tuzilmasi o'zgarishi, bu muvozanatning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Murabbiylar bu o'zgarishlarni e'tiborga olishlari va qisqa masofalarga yuguruvchi sprinterlarning kuch tayyorgarligiga qat'iy individual tarzda yondashishlari lozim deb biladilar.


Tadqiqotimizda aniqlanishicha, kuch tayyorgarligi mushak guruhlarining o'sishiga qaraganda ko'proq asab-mushak koordinatsiyasining takomillashishiga xizmat qilishi kerak. Shu nuqtai nazardan an'anaviy mashqlardan foydalanib bajariladigan uzoq muddatli kuchli ish xato hisoblanadi, shuning uchun sportchi o'z tanasi vaznini yengib o'tgan holda maksimal tezlikdagi kuch mashqlarini bajarishi afzalroq. Shu sababli yugurish qadamlari sur'ati va uzunligini oshirish uchun sprinter harakatlariga xos tuzilishga ega kuch mashqlarini bajarish tavsiya qilinadi. Buning uchun mashg'ulotda, odatda, hammaga tanish yugurish va sakrash mashqlaridan – juft va bir oyoqda ko'p sakrashlar, 30-50 sm dan baland bo'lmagan tepaliklardan sakrab tushish va darrov oldinga siljish, 80 m masofada tezlik uchun ko'p sakrashlar, belgilar bo'ylab va har xil sharoitlarda yugurish, har xil masofa bo'laklarida joyidan turib yugurish, tezlikni o'zgartirgan holda yugurish, yengillashtirilgan sharoitlarda yugurish mashqlarini qo'llash lozim.

Tadqiqotimiz davomida I razryadli qisqa masofalarga yuguruvchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalarini bajarish uslubiyati ishlab chiqildi. Ushbu metodikada yuklamalar, ularni yo'nalishi, shiddati, bajarish davomiyligi, mashqlar va seriyalar oralig'ida dam olish me'yorlari, takrorlash soni belgilandi. Shu bilan birga ushbu razryaddagilar uchun maxsus yugurish tayyoraqligi vositalari ham saralandi va me'yori ishlab chiqildi.

Qisqa masofalarga yuguruvchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalari

Yuklama	Yo‘nalishi	Shiddati	Bajarilishi	Dam olish vaqti		Takrorlashlar soni (m)	Maxsus yugurish tayyorgarligi vositalari
				Mashqlar orasida	Seriyalar orasida		
80 m. masofa bo‘laklarida yugurish,	Tezkor-kuch	Maksimal tezlik – 96-100% da	2x80m	30 m – 2,5-3 daq. 60 m – 5-6 daq. 100 m – 8-10 daq.	6-8 daq.	30 m – 8-10 marta. (5-6 takroriy), 60 m. – 5-6 marta. (3-4 takroriy), 100 m. – 3-4 marta. (2 takroriy)	700 – 40 m, takroriy 500 metrgacha
80 m. masofa bo‘laklarida yugurish,	Tezkor-kuch	Submaksimal tezlik – 90-95% da	4-6x80	3-4 daq.	6-8 daq.	30 m – 6-8 marta. (5-6 takroriy), 60 m – 5-6 marta. (3-4 takroriy), 100 m – 3-4 marta. (2 takroriy)	400-500 m, takroriy 600 metrgacha
80 m. masofa bo‘laklarida yugurish,	Maxsus chidamlilik	Submaksimal tezlik – 96-100% da	6x80m	1-2 daq.	5-7 daq.	4-5 marta (1 seriya)	400-800 m.
80 m. masofa bo‘laklarida yugurish,	Tezkor-kuch	Submaksimal tezlik – 95-100% da	8-10x80	80-3 daq. 100-3 daq. 200-5 daq. 300-5 daq.	2,5-3 daq, 3-5 daq, 6-20 daq.	7-12 marta (4-6 takroriy) 4-10 marta (3-5 takroriy)	400-1200 m.

Tezlik sifatlarini takomillashtirish usullaridan biri – bu maxsus yuk tortish mashqidir, yuk tortish moslamasidan foydalangan holda vaqti-vaqti bilan yoʻnalishni oʻzgartirib, ham oldinga, ham orqaga yugurishlarni bajarish imkonini beradi.



1-rasm. Qisqa masofalarga yuguruvchilarni tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish mexanizmi

Bunday mashqlar qisqa masofalarga yugurishda uzoq vaqt tayyorgarlik koʻrgan malakali qisqa masofalarga yuguruvchilar uchun faoliyatini tayyorgarligiga va

natijalarni yaxshilashga yordam beruvchi trenajyorlardan foydalaniladi. 0,5-2 kg li og'irliklar bilan mashq qilish sportchiga 100 m. masofani o'z natijasidan 0,2-0,3 soniya yaxshiroq yugurib o'tishga yordam beradi (7-jadvalga qarang).

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan modul qisqa masofa yuguruvchilarning tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirishga zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda yondashishni nazarda tutadi. Ilmiy asoslangan yondashuv orqali sportchilarning individual xususiyatlari inobatga olinadi va mashg'ulot jarayoni shaxsiylashtiriladi.

Quyida zamonaviy texnologiyalarning asosiy turlari va ularning sportchining jismoniy ko'rsatkichlariga ta'siri tizimli ko'rinishda yoritilgan. Ushbu modulda zamonaviy texnologiyalar yordamida tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish mexanizmi keltirilgan. Bunda zamonaviy video tahlil texnologiyalaridan harakat texnikasining yuqori aniqlikda va start bosqichidagi biomexanik xatoliklarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu modelda biomexanik tahlil dasturlari 3 D Mysprint App kinogramma tahlil ham qilish imkonini beradi. Yugurish bosqichlarini individual xususiyatlarini tahlil qilish, yuguruvchilarning kuch va tezlik nisbatini optimallashtirishga yordam beradi. Sensorli o'lchov tizimlari esa, depsinish kuchi, yugurish fazalari bo'yicha vaqt va balandlikni aniq o'lchash orqali dinamika nazorat qilish imkonini beradi. Elektromexanik trenajorlar orqali esa kuch va tezlikni bir vaqtda rivojlantiruvchi qarshilik bilan mashq qilish imkonini beradi. Shu bilan birga reaktiv kuchni oshirishga xizmat qiladi. Monitoring texnologiyalari esa mashg'ulot davomida mushak faolligi, yurash urishi, tanadagi stress holati va harorat o'zgarishlarini kuzatish orqali yuklamani nazorat qilish imkoniyatini oshiradi. Trener-sportchi o'rtasida mobil platformalari mashg'ulot natijalarini onlayn kuzatish, tavsiyalar va individual yuklama rejalar tuzish imkoniyatlarini kengaytiradi (1-rasmga qarang).

Sprintchilar uchun mashg'ulotlarda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash ularning harakat ko'nikmalarini chuqurroq o'rganish, kuch va tezlik sifatlarini birgalikda rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, monitoring tizimlari orqali yuklama va tiklanish holatini aniqlash individual yondashuvga asos bo'ladi. Ushbu modeldan foydalanish orqali Har bir sportchi uchun texnologik diagnostika asosida yakka tartibdagi mashg'ulot rejasini ishlab chiqiladi. Trenerlar va sportchilar o'rtasida raqamli aloqa platformalaridan foydalanish orqali samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Mashg'ulotlarda kuch va tezlikni birgalikda rivojlantiruvchi vositalarga (VertiMax, plyometrik sensorlar) ustuvor ahamiyat berish tavsiya etiladi.

Dissertatsiyaning **“Qisqa masofalarga yuguruvchilarni tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan metodikani amaliyotda qo'llanish va sport natijalarini o'sishiga ta'siri”** deb nomlanagan to'rtinchi bobida qisqa masofalarga yuguruvchilarni tezkor-kuch qobiliyatini sport natijalarga ta'siri, tezkor-kuch qobiliyatini sport natijalarga ta'siri o'rganilgan.

Olingan pedagogik tadqiqot natijalaridan shunday xulosa qilish mumkinki, pedagogik tajribaga jalb etilgan har ikkala guruh sinaluvchilari shu jumladan tajriba guruhiga mansub qisqa masofalarga yuguruvchilarni sport natijalari O'zbekiston chempionati va kubok musobaqalarida faxri o'rinlarni egallaganligi hamda sport natijalarini yuksalishiga erishildi. Bu esa ularda tezkor-kuch qobiliyatini oshirish uchun ishlab chiqilgan metodikani samarali qo'llash natijasida erishilganligini

ko'rsatadi. Biz tomonimizdan tadqiqotdan so'ng tajriba va nazorat guruh sinaluvchilarini jismoniy tayyorgarliklarini qiyosiy tahlili asosida o'rganildi.

Jadvalda berilgan ma'lumotlarni umumlantirilganda pedagogik tajribaga saralangan nazorat va tajriba guruhlar talaba-sportchilari tomonidan o'rganilgan jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini xarakterlaydigan testlar bo'yicha tajriba oxirida qayd etilgan natijalari, tajriba boshidagi natijalardan tubdan farq qilib, ancha sezilarli va ishonchli farq mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan, o'rganilgan 1-testimiz 20 metr masofaga start oldidan yugurish testini qo'lladik. Tadqiqotda ishtirok etgan tajriba guruhi sinaluvchilari 20 metrga start oldidan yugurishda tadqiqot oldidan o'tkazilgan pedagogik testlashda o'rtacha $3,36 \pm 0,44$ soniya natijani qayd etgan bo'lsa, tadqiqot yakunida $2,82 \pm 0,34$ soniyaga teng bo'ldi. Nazorat guruhi sinaluvchilari ushbu masofani bosib o'tishda tadqiqot oldidan $3,44 \pm 0,43$ soniya vaqt sarflagan va tadqiqot yakunida bu ko'rsatkich $3,14 \pm 0,39$ soniyaga teng bo'lganligini o'tkazilgan pedagogik tadqiqotda aniqladik.

30 metr masofaga pastki startdan chiqib yugurishda tajriba guruhi sinaluvchilari o'rtacha tadqiqotdan oldin $4,46 \pm 0,67$ soniya tadqiqot yakunida $3,63 \pm 0,51$ soniya, natijani qayd etgan, Nazorat guruhi sinaluvchilari ham ushbu masofani yugurib o'tish uchun tadqiqotdan oldin o'rtacha $4,61 \pm 0,68$ soniya tadqiqot yakunida $4,15 \pm 0,60$ soniya natijaga teng ekanligini aniqlandi.

60 metr masofaga pastki startdan chiqib yugurishda Tajriba guruhi sinaluvchilarining tadqiqotdan oldin $8,47 \pm 1,18$ soniyaga va tadqiqot yakunida $6,98 \pm 0,92$ soniyaga teng ekanligi aniqlandi. Nazorat guruhida esa 60 m masofaga pastki startdan chiqib yugurish bo'yicha tadqiqotdan oldin o'rtacha natija $8,38 \pm 1,14$ s tashkil etdi. Tadqiqot yakunida esa $7,58 \pm 1,03$ soniya ekanligi kuzatildi.

100 metr masofaga pastki startdan chiqib yugurishda Tajriba guruhi sinaluvchilarining tadqiqotdan oldin ko'rsatgan natija o'rtacha $13,47 \pm 2,01$ soniyaga va tadqiqot yakunida esa natijalar o'rtacha $11,20 \pm 1,58$ soniyaga teng ekanligi aniqlandi. Nazorat guruhida esa 100 m masofaga pastki startdan chiqib yugurish bo'yicha tadqiqotdan oldin o'rtacha natija $13,41 \pm 1,96$ soniya tadqiqot yakunida esa bu masofani yugurib o'tish o'rtacha $12,06 \pm 1,74$ soniyateng bo'ldi.

Tezkor-kuch chidamliligini aniqlashda 150 metr masofaga yugurishda har ikkala guruhda o'rtacha natija $19,98 \pm 2,79$ soniya va $20,37 \pm 2,78$ soniyani tashkil etgan edi. Tadqiqot yakunida esa bu ko'rsatkichlar tajriba guruhida $16,43 \pm 2,16$ soniya va nazorat guruhida $18,48 \pm 2,50$ soniyani tashkil etdi.

Tezkor-kuch chidamlilik sifatini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan 200 metr masofaga yugurishda tajriba guruhining tadqiqotdan oldingi tayyorgarligi o'rtacha $26,22 \pm 3,40$ soniyani tashkil etgan bo'lsa tadqiqot yakuniga kelib bu ko'rsatkich $22,24 \pm 2,70$ soniyaga teng bo'ldi. Nazorat guruhida esa tadqiqot oldidan olinganda $25,61 \pm 3,23$ soniyaga teng bo'lgan bo'lsa tadqiqot yakunida bu masofani o'rtacha $23,40 \pm 2,93$ soniyaga yugurib o'tishga erishilganligini ko'rishimiz mumkin.

Oyoqni portlovchi tezkor-kuchini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan joyidan turib uzunlikka sakrash sinov testida tajriba guruhi sinaluvchilarining o'rtacha ko'rsatkichi tadqiqotdan oldin $242,92 \pm 36,38$ sm.ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot so'ngida bu ko'rsatkich o'rtacha $271,71 \pm 34,87$ sm.ga teng bo'ldi. Nazorat guruhi ushbu test

bo'yicha tadqiqotdan oldin $239,25 \pm 35,01$ sm.ni tashkil etgan bo'lsa, tadqiqot yakunida $242,52 \pm 39,43$ sm.ni tashkil etdi.

Uch hatlab sakrash orqali tezkor portlovchi kuchni rivojlanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan ushbu testda tajriba guruhi sinaluvchilari tadqiqot oldidan $660,8 \pm 85,57$ sm. tadqiqot yakunida $788,92 \pm 95,83$ sm. natijani qayd etishdi. Nazorat guruhi sinaluvchilarining ushbu me'zon bo'yicha tadqiqot oldidan o'rtacha ko'rsatkichi $674,63 \pm 85,13$ sm.ga tadqiqotdan keyin $738,76 \pm 42,26$ sm.ga teng ekanligini ko'rsatdi (8-jadvalga qarang).

8-jadval

Talaba sportchilarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari statistik xarakteristikalarini pedagogik tajriba davomida o'zgarish dinamikasining qiyosiy tahlili (n=24)


Jismoniy ko'rsatkichlar	Guruh	Tajriba boshida		V, %	Tajriba oxirida		V, %	t	P
		\bar{X}	σ		\bar{X}	σ			
20 metrga pastki startdan yugurish (soniya)	TG	3,36	0,44	13,10	2,82	0,34	12,06	3,36	<0,01
	NG	3,44	0,43	12,50	3,14	0,39	12,42	1,79	>0,05
30 metrga pastki startdan yugurish (soniya)	TG	4,46	0,67	15,02	3,63	0,51	14,05	3,41	<0,01
	NG	4,61	0,68	14,75	4,15	0,6	14,46	1,76	>0,05
60 metrga pastki startdan yugurish (soniya)	TG	8,47	1,18	13,93	6,98	0,92	13,18	3,45	<0,01
	NG	8,38	1,14	13,60	7,58	1,03	13,52	1,81	>0,05
100 metrga yugurish (soniya)	TG	13,47	2,01	14,92	11,2	1,58	14,11	3,08	<0,01
	NG	13,41	1,96	14,62	12,06	1,74	14,43	1,78	>0,05
150 metrga yugurish (soniya)	TG	19,98	2,79	13,96	16,43	2,16	13,15	3,49	<0,01
	NG	20,37	2,78	13,65	18,48	2,5	13,53	1,75	>0,05
200 metrga yugurish (soniya)	TG	26,22	3,4	12,97	22,24	2,7	12,14	3,18	<0,01
	NG	25,61	3,23	12,61	23,4	2,93	12,52	1,76	>0,05
Joyidan turib uzunlikka sakrash (sm.)	TG	242,92	36,38	14,98	271,71	34,87	12,83	1,98	<0,001
	NG	239,25	35,01	14,63	242,52	39,43	16,26	0,21	<0,05
Joyidan turib uch hatlab sakrash (sm.)	TG	660,83	85,57	12,95	788,92	95,83	12,15	3,45	<0,01
	NG	674,63	85,13	12,62	738,76	92,26	12,49	1,77	>0,05
2 kg.li to'ldirma to'pni bosh ortidan ikki qo'llab oldinga uloqtirish (sm.)	TG	874,58	122,27	13,98	1136,57	148,96	13,11	4,71	<0,001
	NG	904,27	122,97	13,60	1017,31	137,32	13,50	2,12	<0,05

Izoh: \bar{X} —o'rtacha qiymat (mean) σ —standart og'ish (standard deviation) V%—variatsiya koeffitsienti (coefficient of variation) t – t-test statistikasi P—ehtimollik darajasi (statistik ahamiyatlilik).

Navbatdagi 2 kg to'ldirma to'pni ikki qo'llab bosh yuqorisidan oldinga uloqtirishda tajriba guruhi sinaluvchilarining o'rtacha natijasi tadqiqotdan oldin $874,58 \pm 122,27$ sm.ga tadqiqotdan keyin $1136,57 \pm 148,96$ sm.ga teng ekanligi bilan ifodalandi. Nazorat guruhi sinaluvchilarida bu ko'rsatkich bo'yicha tadqiqotdan oldin o'rtacha $904,27 \pm 122,97$ sm.ga tadqiqot yakunida $1017,31 \pm 137,32$ sm.ga teng ekanligi olingan natijadan ko'rishimiz mumkin.

Olingan pedagogik tadqiqot natijalaridan shunday xulosa qilish mumkinki, pedagogik tajribaga jalb etilgan har ikkala guruh sinaluvchilari shu jumladan tajriba guruhiga mansub qisqa masofalarga yuguruvchilarni sport natijalari O'zbekiston chempionati va kubok musobaqalarida faxri o'rirlarni egallaganligi hamda sport natijalarini yuksalishiga erishildi. Bu esa ularda tezkor-kuch sifatlarini oshirish uchun ishlab chiqilgan medodikani samarali qo'llash natijasida erishilganligini ko'rsatadi. Biz tomonimizdan tadqiqotdan so'ng tajriba va nazorat guruh sinaluvchilarini jismoniy tayyorgarliklarini qiyosiy tahlili asosida o'rgandik.

Jadvalda berilgan ma'lumotlarni umumlashtirilganda pedagogik tajribaga saralangan nazorat va tajriba guruhlari talaba-sportchilari tomonidan o'rganilgan jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini xarakterlaydigan testlar bo'yicha tajriba oxirida qayd etilgan natijalari, tajriba boshidagi natijalardan tubdan farq qilib, ancha sezilarli va ishonchli farq mavjudligini ko'rsatdi.



2-rasm. Nazorat va tajriba guruhlari talaba sportchilarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari o'rtacha arifmetik qiymatlarini pedagogik tajriba davomida nisbiy o'sish dinamikasini solishtirish diagrammasi (foizlarda)

Fiziologik ko'rsatkichlari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotda qisqa masofalarga yuguruvchilarni sportchilar organizmida fiziologik va biolimyoviy o'zgarish ko'rsatkichlari bo'yicha olingan natijalar shundan dalolat beradiki, 100 m masofaga yugurishda tezkor-kuch qobiliyati ya'ni jismoniy tayyorgarligi yetarlicha darajada shakllanmaganligini ko'rsatdi, chunki 100 m masofaga yugurishda yugurish ma'romi,

qadamlar kadensi, kislorod iste'moli yoki energiya sarfi keragidan ortiq kuchni ortiqcha sarflanganligi va ularda ushbu fiziologik ko'rsatkichlarni qayta rivojlantirish lozimligini ko'rsatadi (9-jadvalga qarang).

9-jadval


Tadqiqot davomida 100 metrga yugurish natijalarining qiyosiy tahlili (n=24) (Garmin ko'rsatkichlari asosida)

Ko'rsatkichlar	100m (soniya)	Yurak urishi (bpm)	Temp (sek/km)	Kadens (qadam/daq)	SpO2 (%)	Tiklanish vaqti (min.)	Kontakt vaqti (ms)	Energiya sarfi kkal
Tajriba guruhi								
\bar{X}	11,20	163,67	118,89	154,92	97,58	12,50	240,32	601,22
σ	1,58	20,55	11,66	19,18	11,23	1,45	23,82	70,47
V, %	14.11	12,56	9,81	12,38	11,51	11,60	9,91	11,72
Nazorat guruhi								
\bar{X}	12,06	171,67	120,08	172,42	96,67	14,02	250,63	700,01
σ	1,74	24,90	13,33	19,39	10,49	2,07	33,02	102,36
V, %	14.43	14,50	11,10	11,25	10,58	14,76	13,17	14,62

Buning uchun ular bilan o'tkazadigan mashg'ulotlarni ilmiy asosda tashkil etish lozim. Shu bois ular bilan otkaziladigan mashg'ulotlarda tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni turli sport jihozlari bilan tashkil etish jismoniy tayyorgarligini shakllanishiga imkon beradi. Tajriba bizga shuni ko'rsatdiki tajribadan so'ng barcha ko'rsatkichlar sezilarli darajada o'sdi (9-jadvalga qarang).

Tadqiqotdan so'ngida natijalar qo'yidagicha qayd etildi. 100 metrga yugurishda nazorat guruhi yuguruvchilari o'rtacha 12,06±1,74 soniya yugurgan bo'lsa, tajriba guruhi 11,20±1,58 soniyaga teng bo'ldi. Yurak urishi nazorat guruhi sinaluvchilarida 171,0±1,90 ga teng bo'lsa, bu natija tajriba guruhida 163,67±3,55 ga teng bo'ldi. Yugurish meyori (temp) nazorat guruhida o'rtacha 120,08±3,33 daqiqa/km ga teng bo'lgan bo'lsa, tajriba guruhida 118,89±4,66 daqiqa/km ga teng ekanligi aniqlandi. 100 metrga yugurishda qadamlar kadensi nazorat guruhida 172,42±2,39 qadam/daqiqa ga teng. Tajriba guruhlarida esa 154,92±3,18 qadam/daq. ga teng ekanligi bizga ma'lum bo'ldi. Qondagi kislorod miqdori nazorat guruhida 96,67±0,49 % ni tashkil etdi. Tajriba guruhida esa 97,58±1,00% ni qayd etdi. Risover time ya'ni sportchi uchun to'liq tiklanish vaqti (Garmin tomonidan tavsiya etilgan vaqt) nazorat guruhida 14,02±1,07 daqiqa bo'lsa, tajriba guruhida 12,50±2,15 daqiqani tashkil etdi. Kontakt vaqti nazorat guruhi sinaluvchilarida o'rtacha 250,63 ms bo'lsa, tajriba guruh sinaluvchilarida 240,32 ms ekanligi aniqlandi. Masofaga sarflagan energiya sarfi nazorat guruhida o'rtacha 700,01±83,02 kkal sarflagan bo'lsa, tajriba guruhida bu ko'rsatkich 601,22±70,82 kKal sarflanganligi aniqlandi. Ushbu ko'rsatkichlardan

ko‘rinib turibtki nazorat guruh sinaluvchilarida ham o‘shish kuzatildi. Biroq tajriba guruh sinaluvchilarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Tajriba va nazorat guruhi tadqiqot davomida 100 metr ga yugurish natijalar dinamikasi (foizlarda)

Yuqorida rasmda tajriba va nazorat guruhi tadqiqot davomida 100 metr ga yugurish natijalari dinamikasi tahlil qilindi. Bunda 100 m ga yugurish tajriba guruh sinaluvchilarida o‘rtacha 7,61 % nisbiy o‘shish, nazorat guruhida o‘rtacha 3,92 % o‘shish kuzatildi. YuQS tajriba guruh sinaluvchilarida o‘rtacha 5,16 % bo‘lsa, nazorat guruh sinaluvchilarida 0,77 % o‘zgarish bo‘lgani aniqlandi. Temp tajriba guruh sinaluvchilarida o‘rtacha 7,6 % bo‘lsa, nazorat guruhida 3,94 % nisbiy o‘shish aniqlandi. Kadens qadamlar tajriba guruhida o‘rtacha 10,28 % bo‘lsa, nazorat guruh sinaluvchilarida o‘rtacha 1,1 % ekanligi aniqlandi. SpO2 esa tajriba guruh sinaluvchilarida o‘rtacha 14,13 % nisbiy o‘shish kuzatildi, nazorat guruh sinaluvchilarida 1,16 o‘zgarish aniqlandi. Recover time tiklanish vaqti esa tajriba guruhi sinaluvchilarida 14,79 % nisbiy o‘shish aniqlandi, nazorat guruh sinaluvchilarida esa 0,43 % kuzatildi. Kontakt vaqti esa tajriba guruh sinaluvchilarida 7,57 % bo‘lsa, nazorat guruh sinaluvchilarida 1,78 % ekanligi aniqlandi. Energiya sarfi tajriba guruh sinaluvchilarida 20,58 % nisbiy o‘shish aniqlangan bo‘lsa, nazorat guruhida 4,04 % nisbiy o‘shish aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkichlardan ko‘rinib turibtki tajriba guruh

sinaluvchilarida ijobiy o'zgarish kuzatildi. Bu esa biz tomonimizdan qo'llanilgan metodikaning samaradorligidan dalolat beradi.

XULOSALAR

1. Dissertatsiya ishi bo'yicha mavzuga oid to'plangan adabiyot manbalarini o'rganish, olib borilgan kuzatuv, o'tkazilgan tadqiqotlar, pedagogik testlash va pedagogik tajriba natijalarining tahlilidan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin. O'tkazilgan pedagogik tajriba natijalariga ko'ra qisqa masofalarga yuguruvchilarni tezkor-kuch qobiliyatini zamonaviy vosita usullar yordamida rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish natijasida sportchilarni startdan chiqish texnikasini 0.3-0.35 soniyadan 0.2 soniyaga yaxshilanganligi pedagogik tajribada o'z isbotini topdi. Chunki ularni oyog'ini to'rt boshli bukuvchi va yozuvchi boldirning kombalasimon va oyoq panja paylari va qorin bel musaklarini rivojlantirishga qaratilgan mashlarni to'g'ri qo'llash hisobiga yuqori texnik tayyorgarlikka erishish ta'minlandi.

2. Qisqa masofalarga yuguruvchi talaba sportchilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan xajmli, shiddatli, zarbdor, nazorat va musobaqa oldi tayyorgarlik mikrosikllarida 0.5 kg-1 kggacha bo'lgan manjetlarni yasab g'ovlar ustidan sakrab bajariladigan mashqlarni amaliyot jarayoniga qo'llash natijasida sportchilarni maxsus jismoniy tayyorgarligi shakllanib sport natijalarini yuksalishini ta'minlashga erishilgan, natijasida qisqa masofalarga yuguruvchi talaba-yoshlarni tezkor-kuch qobiliyati 11 % ga yaxshilandi.

3. Qisqa masofalarga yuguruvchilarni tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish maqsadida mashg'ulotlarda ishlab chiqilgan turli balandlikdagi g'ovlarni amaliyot jarayoniga kiritish hamda mashqlar to'plamini ushbu ishlab chiqilgan g'ovlar bilan sakrab mashqlarni bajarish hisobiga sportchilarda tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirilgan. Natijada, qisqa masofalarga yuguruvchilarda tezligi 7 % ga oshgan.

4. Qisqa masofalarga yuguruvchi talaba yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlash dasturini optimallashtirish natijasida yangi shiddatli o'sib boruvchi uchtagacha bo'lgan katta, submaksimal yuklamalarni tayyorgarlik mikrosikllarida bitta meyorlashtiruvchi mikrosiklni tashkil qilish natijasida talaba sportchilarni musobaqalarda yuqori sport natijalarini ko'rsatish imkoniyatlari ta'minlangan, natijada sport ko'rsatkichi 10 % ga yaxshilangan.

5. Qisqa masofaga yuguruvchilarning yillik mashg'ulot jarayonlarini samarali boshqarishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni katta ekanligini zamonaviy sport isbotlab berdi. Hozirgi zamonaviy hayotda va sportda innovatsion texnologiyalarining o'rni katta ekanligini ko'rsatib bormoqda. Natijada, qisqa masofalarga yuguruvchilarni tayyorlash uchun kuch va tezlikni bir vaqtda rivojlantiruvchi qarshilik bilan mashq qilish imkonini beruvchi yugurish fazalarining individual xususiyatlarini tahlil qilish, sportchining tezkor-kuch nisbatini optimalashtirishda zamonaviy texnologiyalar yordamida tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqildi. Buning natijasida, tajriba guruhi sinaluvchilarida tezkor-kuch qobiliyati rivojlanishi hisobiga absalyut farq 3.06 ga nisbiy osish esa 23,78 foizni tashkil etgan.

6. O'tkazilgan pedagogik tajriba natijalariga ko'ra qisqa masofalarga yuguruvchilarni tezkor-kuch qobiliyatini zamonaviy vosita usullar yordamida rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish natijasida sportchilarni startdan chiqish

texnikasini 0.3-0,35 soniyadan 0,2 soniyaga yaxshilanganligi pedagogik tajribada o'z isbotini topdi. Chunki, ularni oyog'ini to'rt boshli bukuvchi va yozuvchi boldirning kombalasion va oyoq panja paylari va qorin bel musaklarini rivojlantirishga qaratilgan mashlarni to'g'ri qo'llash hisobiga yuqori texnik tayyorgarlikka erishish ta'minlandi.

7. Qisqa masofalarga yugurishda erishilgan natijalar, sportchilarning startdan chiqish vaqti, yugurish dinamikasi va finishga yetib borish samaradorligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, mikrotsikllar asosida tuzilgan musobaqa oldi tayyorgarlik dasturi sportchilarning funksional holatini optimallashtirish va ularni musobaqalarga samarali tayyorlash imkonini yaratdi. Start reaksiyalarini tahlili olib borilganda bizning sportchilarning start reaksiyalari bir qancha sust rivojlanganliklarini va uni rivojlantirish maqsadida sport mashg'ulotlari jarayonini boshqarishni yanada optimallashtirish zaruratini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan mashg'ulotlar tizimi turli yoshdagi va turli darajadagi sportchilarni tayyorlashda ham universal qo'llanma bo'la oladi. Uning sport maktablari, OTMlar va sport klublari mashg'ulot jarayonida joriy etilishi ta'lim-tarbiyaning sifati va sport natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

AMALIY TAVSIYALAR

1. Qisqa masofalarga yugurishda startdan chiqish texnikasini takomillashtirish uchun oyoqning to'rt boshli yozuvchi va bukuvchi mushaklarini, boldirning kombalasion mushaklarini hamda qorin va bel muskullarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar tayyorgarlik dasturlariga muntazam ravishda kiritilishi lozim.

2. Mikrotsikllar asosida yuklama va dam olishni moslashtirish tizimli rejalashtirilsin. Xususan, hajmli, shiddatli, zarbdor, nazorat va musobaqa oldi mikrotsikllarini to'g'ri tartibda joylash va individual yondashuvlar asosida sportchining tayyorgarlik darajasiga mos ravishda tanlash tavsiya etiladi.

3. 0,5 kgdan 1 kggacha bo'lgan og'irlikli manjetlardan foydalangan holda, turli balandlikdagi g'ovlar ustidan sakrab bajariladigan mashqlar tezkor-kuch ni rivojlantirishning samarali usuli sifatida tavsiya qilinadi. Bu mashqlar muskullarni faollashtirish va harakat motorikasini kuchaytirishga yordam beradi.

4. Ishlab chiqilgan maxsus g'ovlar to'plami bilan mashqlar kompleksini tayyorgarlik mashg'ulotlariga kiritish orqali sportchilarning dinamik kuch va yugurishda muvozanat saqlash qobiliyati yaxshilanadi. Bu kompleks mashqlar musobaqa sharoitida yuzaga keladigan qiyinchiliklarga tayyorgarlikni oshiradi.

5. Musobaqalarga tayyorgarlikda maxsus mizotsikllar tuzilishida uchta shiddatli o'sib boruvchi va bitta me'yorlashtiruvchi mikrotsikldan iborat musobaqa oldi reja ishlab chiqilsin. Bu sportchilarning fiziologik va psixologik holatini musobaqaga optimal holda tayyorlash imkonini yaratadi.

6. Trener va murabbiylar uchun metodik qo'llanmalar tayyorlanishi, tadqiqot natijalari asosida maxsus dasturlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Bu trenerlar faoliyatida ilmiy yondashuvni joriy etish imkonini beradi.

7. Tadqiqot natijalari asosida amaliy seminar va mahorat darslari tashkil etish, sport ta'limi muassasalarida ushbu metodikani keng joriy qilish orqali sportchilarning raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

**УЧЕНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ФИЗИЧЕСКОЙ
КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

ЭЛОВА СИТОРА АХМАТКУЛОВНА

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ СКОРОСТНО-СИЛОВЫХ СПОСОБНОСТЕЙ
БЕГУНОВ НА КОРОТКИЕ ДИСТАНЦИИ**

**13.00.04- Теория и методика физического воспитания, спортивной тренировки,
оздоровительной и адаптивной физической культуры**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

Чирчик–2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под номером 2024.2.PhD/Ped7696.

Докторская диссертация выполнена в Узбекском государственном университете физической культуры и спорта.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета веб-сайта Узбекском государственном университете физической культуры и спорта (www.jtsu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Даниева Яркой Чориевна доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент
Официальные оппоненты:	Рахимов Владимир Шовкатович Доктор педагогических наук, (DSc) профессор Шеров Закир Туйлиевич доктор философии по педагогическим наукам (PhD), профессор
Ведущая организация:	Самаркандский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится «___» «_____» 2025 г. в _____ часов на заседании Научного совета DSc. 33/01.02.2022.Ped.146.01 при Научно-исследовательском институте физической культуры и спорта по адресу: 111709, Ташкентская область, г.Чирчик, ул. Спортивная, дом 19. Тел: (0-370) -717-17 79,717-27-27, факс: (0-370) 717-17-76, Веб-сайт: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, Здание Е, 3-й этаж, аудитория 309).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета физической культуры и спорта (зарегистрирована под номером _____) по адресу: 111709, Ташкентская область, г.Чирчик, ул. Спортивная, дом 19. Тел: (0-370) -717-17 79,717-27-27, факс: (0-370) 717-17-76).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 года
(реестр протокола рассылки №___ от «___» _____ 2025 года)

Р.М.Маткаримов
Председатель Научного совета по присуждению
ученых степеней, доктор педагогический
наук (DSc) профессор

М.А. Ибрагимов
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.ф.п.н. (PhD), профессор

А.Н.Шопулатов
Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.п.н. (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Увеличение спортивных результатов на мировых аренах сегодня показывает необходимость внедрения новых технологий в практический процесс. Подготовка спортсменов к престижным соревнованиям, особенно в беге на короткие дистанции легкой атлетики, повышение их физической, функциональной, технической, тактической, психологической и интегральной подготовки считается одной из приоритетных задач системы подготовки спортсменов. Кроме того, в беге на короткие дистанции легкой атлетики невозможно достичь высоких результатов без развития скоростно-силовых способностей спортсменов, развитие скоростно-силовых способностей путем применения новых средств и методов физической подготовки спортсменов на тренировках, а также повышение спортивных результатов в настоящее время считается одной из актуальных задач.

В мире особое внимание уделяется повышению физической, функциональной, технической, тактической и психологической подготовки бегунов на короткие дистанции, отбору и направлению их в различные виды спорта. В странах мира проводятся научные исследования по распределению нагрузок в микро-, мезо-и макроциклах бегунов, оптимальному планированию тренировок на этапах подготовки, определению степени зависимости технической подготовки от физических качеств, развитию скорости. Однако рост спортивных результатов требует развития скоростно-силовых способностей бегунов на короткие дистанции в системе подготовки бегунов, что служит повышению возможностей подготовки спортсменов к престижным соревнованиям, а также возникает необходимость создания методологических основ, направленных на обеспечение роста спортивных результатов.

